

SEMANTIK TEGLASHNING FE'L SO'Z TURKUMIGA OID GURUHLAR TASNIFI

Ismadiyorov Zafar

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston

Milliy universiteti magistranti.

E-mail: zafarismadiyorov1@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada matnni semantik teglash jarayoni, usullari, uning amaliy ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlari va fe'l so'z turkumi doirasidagi fe'llarni o'zgarishlarining sabablari haqida bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: teglash, ehtimollik nazariyasi, metriki, CLAWS, lemmatayzer, terminologiya, sintaktik tahlil, morfologik stemmerlar.

Abstract: This article describes the process of semantic tagging of the text, its methods, its practical importance, specific features, and the reasons for changing verbs within the verb phrase.

Keywords: tagging, probability theory, metric, CLAWS, lemmatizer, terminology, syntactic analysis, morphological stemmers.

Аннотация: В данной статье описан процесс семантической разметки текста, его методы, практическое значение, особенности и причины изменения глаголов внутри глагольного словосочетания.

Ключевые слова: тегирование, теория вероятностей, метрика, CLAWS, лемматизатор, терминология, синтаксический анализ, морфологические стеммеры.

Semantik teglash - bu so'zlar, iboralarga yoki ma'nolarga ta'sir qiluvchi o'zgaruvchilarni va ularning munosabatlari, o'zgarishlari va xususiyatlari to'g'risida o'rganish, tushuntirish va ta'riflashning ilmiy yo'nalishi hisoblanadi. Bu yo'nalish so'zlar, gaplarning va butun qatori ma'lumotlar turlari orasidagi ma'naviy aloqalarni o'rganadi. Matnlarni teglash uch usulda bajariladi: 1) *qidaga asoslangan teglash* - bunda teglash tizimi leksikonga asoslanadi, bioq o'zi uchun noma'lum bo'lgan konstruksiyaga tegishli teqlarni aniqlay olmasligi mumkin; 2) *ehtimolga asoslangan teglash* - ehtimollik nazariyasi metrikasi yordamida amalga oshiriladi. Agar so'z noma'lum grammatik sinfga tegishli bo'lsa, u qo'shimcha ma'lumotlar bazasidan qidiriladi; 3) *gibrild asosli teglash* (CLAWS texnologiyasi yordamida) kiradi. Bunda ham ma'lumotlar bazasidan, ham ehtimollik vaziyatlariga qarab teglar tanlanadi [N.Abduraxmonova. 202, 75].

Hozirda bu kabi teggerlarning namunalarini internet tizimida qo'llash mumkin. Penn sintaktik korpuslaring natijasi sifatida sintaktik tahlil uchun Fidditch teggeri, tobelanish analizi uchun uzviy grammatika tizimi, Britaniya milliy korpusi uchun CLAWS morfologik teggeri, ko'plab korpuslarga amal qilinadigan USAS semantik teggeri va sistemalar tarkibida yaratilgan lemmatayzer yoki morfologik stemmerlar shular jumlasidandir [T. McEnery, A. Hardie. 2012:29].

Matnlarni semantik teglashning ahamiyati juda katta, chunki bu jarayon, matnlarning ma'nolarini aniqlash va tushuntirishga yordam beradi. Semantik teglash matnning tahlilini qilish, undagi asosiy mavzuni aniqlash, muhim ma'nolarni ajratib chiqish va ularning mantiqiy aloqalarini tushuntirishda juda foydali bo'ladi [Abdurakhmonova, N. 2019,2021,2022,2023].



RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR VA
SUN'IV INTELLEKTNI RIVOJLANТИRISH
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI



Misol uchun, so‘zlar, gaplar yoki to‘plam ma’lumotlari o‘zining konteksti ichida qanday ma’nolarni anglatadi va ularga qanday munosabatda qo‘llaniladi, semantik teglash orqali aniqlanishi mumkin. Bu matnlarni yaxshi tushunish, ulardan foydalanish va ma’lumotlarni manbalar orqali muvofiqlashda yordam beradi. Semantik teglashning amaliyoti odatda quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

- Dastlab, matn yoki ma’lumotlar to‘planadi va ularni ma’nolari bo‘yicha tahlil qilinib, matnning qanday ma’lumotlar o‘z ichiga olganligini tushuntirish uchun kerakli ma’lumotlarni topish, to‘plash va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.
- Matnning asosiy mavzusini aniqlash va matnni qanday kontekstda yoki muhitda qo‘llab-quvvatlashi matnning ma’nosini va uning ahamiyatini tushuntirishga yordam beradi.
- Har bir so‘z, ifoda yoki qism ma’nolari o‘rganiladi va tahlil qilinib, har bir so‘zning o‘ziga xos ma’nolari va ularga qo‘llanilishi kerak bo‘lgan o‘rinlari keltiriladi.
- Keyinchalik, matnlarning ichidagi so‘zlar va ifodalar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashga alohida e’tibor qaratilib, so‘zlar, gaplar va ifodalarning bir-biriga qanday ta’sir qilishini va ulardagi aloqalarni tushuntirishda yordam beradi.
- Oxirgi bosqichda asosiy tahlil va ta’riflash jarayonlarini o‘z ichiga olib, ma’lumotlar o‘zgaruvchilarini, kontekstlarni va munosabatlarni tahlil qilishni va matnlarni tushuntirishni o‘z ichiga oladi.

Aslida, semantik teglash barcha turkumlarda amalga oshirilishi mumkin, chunki uni matnning ma’nolari, tushunchalari va munosabatlari haqida tahlil qilish uchun qo‘llash mumkin. So‘z turkumlarini teglashning dastlabki shakli Lankaster universitetining tadqiqot markazida (UCREL) o‘tgan asrning 80- yillarda Jeorey Lich rahbarligida ishlab chiqilgan. Ingliz tili uchun CLAWS (the Constituent Likelihood Automatic Word-tagging System) avtomat tegi 1980-yilda paydo bo‘lgan. O‘scha vaqtidagi taggerning imkoniyatlari muayyan darajada o‘zgartirilgan bo‘lsada, hanuz uch bosqichini saqlab qolgan: tahriroldi, avtomatik teglash, natijani tahrirlash. CLAWS yillar davomida turli teglardan foydalangan bo‘lsa - da, hozirda uning 132 asosiy tegi mavjud[Abdurakhmonova, N. 2019,2021,2022,2023]. Braun korpusidagi aksariyat teglar yuqorida nomi qayd qilingan korpus teglari bilan bir xil. Ushbu teglash tizimi matnni teglash uchun beshta alohida bosqichni amalga oshiradi [R. Garside. 33]: 1) tahrir oldi fazasi - ushbu bosqich uchun yarim avtomat , yarmi qo‘l mehnati orqali matnni teglash tizimiga moslashtiriladi; 2) tegni belgilash - matnga kiritilgan har bir so‘z bir yoki bir nechta tegga ega bo‘ladi. Ushbu bosqich so‘zining matndagi holatini emas, balki ixtiyoriy matnda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan holat uchun tegni aniqlaydi; 3) idiomalarni teglash bosqichda muayyan tegga mos keluvchi kontekstdagi so‘zlarning teglari belgilanadi; 4) teglarni aniqlashtirish mazkur bosqichda kontekstda uchragan so‘z birdan ortiq tegga to‘g‘ri kelib qolganda eng munosib varianti aniqlanadi; 5) tahrirdan so‘ng kompyuterda yo‘l qo‘ylgan ortiqcha ma’lumotlarlarga ishlov beriladi.

Shuningdek, o‘zbek tili korpuslari uchun semantik teglash tizimini ishlab chiqish uchun o‘zbek tilining izohli lug‘atidagi fe’l so‘z turkumiga kiruvchi ma’lum guruhgaga kiradigan fe’llar uchun attributlar tizimini ishlab chiqish, ushbu teg guruhlarining ichiga shu ma’no-mazmunga ega bo‘lgan so‘zlarni joylashtirib chiqish va natijada dasturiy ta’midot yaratish dolzarb masala hisobladi[Abdurakhmonova, N. 2019,2021,2022,2023].

Jumladan, O‘zbek tilining izohli lig‘atida [Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдлик, 2000-2006: 23] yur fe’lini quyidagicha ma’nolari borligini keltiradi: 1.Qadam tashlab olg‘a bosmoq, qadamlab jilmoq. 2. Ma’lum yo‘nalishda harakat qilmoq, bir joydan boshqa joyga jilmoq,



bormoq yoki ketmoq (asosan transport vositasi haqida). 3. Umuman, bir joydan jilmoq, siljimoq (suzmoq, sudralmoq, o'rmalamoq va shu kabilalar). 4. Kezish, aylanish, sayohat va shu kabilarda bo'lmoq. 5. Hayot kechirmoq, yashamoq. 6. Ish-faoliyat va shu kabilarda birga bo'lmoq. 7. Qatnamoq. 8. Davom etmoq (o'zi birikib kelgan so'z bildirgan holatda). 9. Shaxmat, qarta, domino kabi o'yinlarda o'z navbatida, navbati kelganda harakat qilmoq, o'ynamoq; yurish qilmoq. 10. Harakatga kelmoq, ishlab turmoq, ishlamoq (mexanizmlar haqida). 11. Suygan yor bilan vaqt o'tkazmoq, yaqin munosabatda bo'lmoq. 12. Rozi bo'lmoq, ko'nmoq, unamoq. 13. Yoyilib ketmoq, yoyilmoq; tarqalmoq (gap-so'z, xabar haqida).

Xulosa o'rnida, fe'l so'z turkumida semantik teglash jarayoni fe'llarning ma'nolari, tushunchalari va ularga qo'llanilish usullari haqida tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Bu fe'llarning turkumning barcha jabhalar bo'yicha tahlil qilinishini va ulardagi munosabatlarni tushuntirishni o'z ichiga oladi. Semantik teglash fe'lllar turkumida quyidagi bosqichlarga asoslanadi:

- turkumning ichidagi har bir fe'lning o'ziga xos asosiy ma'nosini aniqlash;
- fe'lllarining turkum ichidagi ma'nolari va ularga qo'llanilishi tahlil qilish;

-bu fe'llarning qanday kontekstda yoki munosabatda qo'llanilishi va ulardagи farqlar tushuntiriladi. Ba'zi fe'llarning ma'nosida o'zgaruvchiliklar mavjud bo'lishi mumkin. Semantik teglashda bu o'zgaruvchiliklarni aniqlash va ulardagи farqlarni tahlil qilish juda muhimdir. Fe'lllar turkumidagi kontekst va uslub tahlili ham semantik teglashning muhim qismlaridan biridir. Fe'lllar o'zining turkum ichidagi joyi va ularga qo'llanish usullari o'zaro bog'liq bo'lishi mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. N. Abduraxmonova. Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti(monografiya). - Toshkent:Muharrir, 2018. 165b.
2. N. Abduraxmonova. Kompyuter lingvistikasi (darslik) - Toshkent, 2021. 400b.
3. T. McEnergy, A. Hardie. Corpus linguistics: method, theory and practice, Cambridge. 2012, -P, 29
4. Abdurakhmonova, N. Z., Ismailov, A. S., & Mengliev, D. (2022, November). Developing NLP Tool for Linguistic Analysis of Turkic Languages. In 2022 IEEE International Multi-Conference on Engineering, Computer and Information Sciences (SIBIRCON) (pp. 1790-1793). IEEE
5. Абдурахмонова, Н., & Бойсариева, С. (2023). Tabiiy tilni qayta ishlashda (nlp) okkazionalizmlarning morfem tahlili. Международный журнал искусство слова, 6(3)
6. Abdurakhmonova, N., Tulihev, U., Ismailov, A., & Abduvahobo, G. (2022). UZBEK ELECTRONIC CORPUS AS A TOOL FOR LINGUISTIC ANALYSIS. In Компьютерная обработка тюркских языков. TURKLANG 2022 (pp. 231-240)
7. Abdurakhmonova, N. (2019). Dependency parsing based on Uzbek Corpus. In of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All).
8. R. Garside. The CLAWS Work-tagging System. In: R. Garside, G. Leech and G. Sampson(eds), The Computational Analysis of English: A Corpus-based Approach. London: Longman, P. 3.
9. R. Delmonte. Computational Linguistics Text Processing: Lexicon, grammar, Parsing and Anaphora Resolution, Nova Science Publishers, Inc. New York, 2008.